

QISHLOQ XO'JALIK EKin MAYDONLARI BAZASINING DASTURIY TA'MINOTINI YARATISHNING ZARURATI VA AHAMIYATI

Inamov Bekzod Nizamovich, q.x.f.f.d (PhD), katta ilmiy xodim

ORCID ID: 0009-0007-8715-8503

Sharopov Ramziddin Najmiddinovich, q.x.f.f.d (PhD), katta ilmiy xodim

ORCID ID: 0009-0008-6259-7769

Muxtarova Mohinur Sultonovna, tayanch doktorant

ORCID ID: 0009-0007-6831-0186

Sherqulov Farrux Hamza o'g'li, Yer axborot tizimi bo'limi bosh mutaxassisi

ORCID ID: 0009-0007-2594-4082

"O'zdavyerloyiha" DILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi ekin maydonlari bazasining dasturiy ta'minotini yaratishning zarurati va ahamiyati, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi iqtisodiyotiga ta'siri hamda qishloq xo'jaligi yerdan foydalanuvchilari uchun dasturiy ta'minotning afzalliklari va raqamli qishloq xo'jaligi tizimini yaratishdagi o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi ekin maydonlari, dasturiy ta'minot, raqamli texnologiyalar, suv resurslari, axborot texnologiyalari, agroteknik tadbirlar, sug'orish texnologiyalari, meliorativ tadbirlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается необходимость и важность создания программного обеспечения для управления сельскохозяйственными угодьями, его влияние на аграрную экономику нашей страны, преимущества программного обеспечения для пользователей сельскохозяйственных земель, а также его роль и значение в создании цифровой аграрной системы.

Ключевые слова: сельскохозяйственные угодья, программное обеспечение, цифровые технологии, водные ресурсы, информационные технологии, агротехнические мероприятия, технологии полива, мелиоративные мероприятия.

Abstract. This article discusses the need and importance of creating a software database for agricultural arable land, its impact on the agricultural economy of our country, the benefits of software for agricultural land users, and its role and significance in creating a digital agricultural system.

Keywords: agricultural arable land, software, digital technologies, water resources, information technologies, agrotechnical measures, irrigation technologies, land reclamation measures.

Kirish: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-fevraldagi "Qishloq xo'jaligi ekin maydonlari unumdorligini oshirish, tarmoqqa investitsiyalar jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-18-son Farmoniga asosan, yer uchastkalarini ajratishning barcha uchun teng, shaffof va bozor tamoyillariga asoslangan tartibini yanada takomillashtirish, qishloq xo'jaligi sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish orqali paxta va g'alladan qisqartirilayotgan yer maydonlarida yuqori qo'shilgan qiymatga ega va eksportbop qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirishni ko'paytirish, oziq-ovqat xavfsizligi va narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida:

Har bir lot hujjatida, keyinchalik esa yer uchastkasining ijara shartnomasida quyidagilar majburiy ravishda ko'rsatiladi:

- yer uchastkasining normativ qiymati va tuproq bonitet bali;
- tuproq tarkibi va sifati tahlili natijalari, o'rganilgan vaqti;
- almashlab ekish tavsiya etiladigan asosiy va takroriy ekin turlari;

- suv bilan ta'minlash usullari, davlat tomonidan kafolatlanadigan yillik suv yetkazib berish limitlarining eng past va eng yuqori darajasi;

- dala chetida (muhofaza zonasidan tashqari) 20 sotixdan ko'p bo'lmagan, lekin ijaraga berilgan kontur maydonining bir foizidan oshmagan qismida qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi obyektlarni (yengil konstruksiyali muzlatkichli omborxonalar,

saralash, qadoqlash joylari, suv tejovchi texnologiyalar, dala shiyponi, texnika parki) joylashtirishni nazarda tutgan holda ishlab chiqilgan yer tuzish loyihasi[1];

Mamlakatimizda yer uchastkasining relyefi, joylashgan o'rni, hudud iqlimi, sharoitlari, tuprog'i va tabiiy landshaft xususiyatlarini inobatga olgan holda aniq dehqonchilikni yuritishni yo'lga qo'yish muhim masala hisoblanadi. Bugungi kundagi global iqlim o'zgarishi, suv resurslarining cheklanganligi va yerlarning degradatsiya jarayonlarini hisobga olinsa, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarida o'tkaziladigan agroteknik tadbirlar aniq hisob-kitoblar asosida o'z vaqtida amalga oshirilishini talab etadi [2].

Yerdan foydalanuvchilarning ekin maydonlari to'g'risida aniq va integratsiyalashgan ma'lumotga ehtiyoji yuqori bo'lib, ekin yerlarida o'tkazilishi rejalashtirilgan agroteknik tadbirlarni o'tkazish muddatlari, davomiyligi, qishloq xo'jaligi texnikalariga bo'lgan talabi, yerga ishlov berish usuli, sug'orish texnologiyalari va muddatlari, ekinning suvga bo'lgan talabi, oldingi yillarning hosil ko'rsatkichlari va joriy hosilni prognozlash amaliyotlari, dalaning tarixi (avvalgi ekilgan ekin turlari, o'tkazilgan agroteknik va meliorativ tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlar), o'g'itlarga bo'lgan ehtiyoj, umuman olganda, ekin ekishdan to'g'risidagi yig'ishgacha bo'lgan jarayonni kuzatish va yerdan foydalanuvchini yangilanib turadigan raqamli ma'lumot bilan ta'minlash respublika miqyosida dolzarb masala hisoblanadi [3].

Qishloq xo'jaligi ekin maydonlari bazasining dasturiy ta'minoti

Qishloq xo'jalik ekin maydonlari bazasining dasturiy ta'minotini yaratishning zarurati va asosiy jihatlari

Ma'lumotlarni markazlashtirish va boshqarish	Aniq rejalashtirish va resurslarni tejash	Monitoring va nazorat qilish imkoniyati	Statistik tahlil va hisobotlar	Raqamli qishloq xo'jaligiga o'tish
--	---	---	--------------------------------	------------------------------------

qishloq xo'jaligi yerdan foydalanuvchilari uchun, ekin maydonlari haqidagi ma'lumotlarni yagona platformada saqlash, yangilash va tahlil qilish imkonini beradi.



1-rasm. Qishloq xo'jalik ekinlarining biologik xususiyatlari va ularga ta'sir qiluvchi omillar haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish dasturiy ta'minot orqali avtomatlashtiriladi.

Qishloq xo'jaligi sohasini raqamlashtirish natijasida majmuadagi barcha jarayonlarni elektron tarzda ro'yxatdan o'tilishiga va tizim shaffofligiga erishiladi[8].

Bundan tashqari, agrar sohada yangi Axborot texnologiyalarni qo'llanishi qishloq xo'jaligi mahsulotining tannarxi pasayishiga va raqobatbardoshlik oshishiga imkon yaratadi. Bunda agrosanoat majmui tarkibiga kiruvchi sohalar, ularning yuqori organlari va xo'jalik yurituvchi barcha subyektlar o'rtasida ma'lumotlarni yetkazish va axborotlarni uzatish tarmog'ini tashkil etish, sotish jarayonini elektron tartibga o'tkazish muhim hisoblanadi. Raqamlashtirish tizimi iqtisodiyot tarmoqlarida tejamkorlikni oshiradi va samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi qishloq xo'jaligida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni Yalpi ichki mahsulot (YalM) ulushining o'sishiga olib keladi va YalMni aholi jon boshidagi ulushi ham yuqorida bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa qishloq xo'jaligi yerdan foydalanuvchilarining yashash darajasini yuksalishiga, daromadlarining oshishiga,

zamon bilan hamnafas yashashiga imkon yaratadi [4] [5].

Qishloq xo'jaligi yerlari (yaylov yerlarini ham hisobga olgan holda) respublikamiz hududining 58,4%ni tashkil etishini inobatga olsak, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar, nafaqat mamlakat aholisining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashda, balki qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportidan kelib tushadigan iqtisodiy daromad manbai sifatida ham mamlakatimiz istiqboli uchun qimmatli resurs hisoblanadi. Mamlakatimizdagi sug'oriladigan ekin yer maydonlarida asosan paxta, g'alla, sabzavotlar, poliz ekinlari va boshqalar yetishtiriladi[6].

Ekin maydonlarida agroteknika tadbirlarni raqamlashtirishga bo'lgan ehtiyoj yer resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarish barqarorligini oshirishga bo'lgan bugungi kun talabi bilan asoslanadi. Internet vositalari va ma'lumotlar tahlili kabi raqamli texnologiyalar qishloq xo'jaligi ekinlarining o'sish sharoitlarini kuzatish, sug'orish va o'g'itlarni qo'llashni optimallashtirish va atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirish imkonini beradi. Bu global iqlim o'zgarishi va barqaror qishloq xo'jaligiga talab ortib borayotgan sharoitda ekinlarning hosildorligi va sifatini oshirishga yordam beradi [7].

Xulosa. Qishloq xo'jalik ekin maydonlari bo'yicha dasturiy ta'minot yaratish – bu nafaqat texnologik yangilik, balki samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, ishlash jarayonini soddalashtirish va raqamli iqtisodiyotga moslashish uchun zarur bo'lgan vositadir. Dasturiy ta'minotini yaratish zamonaviy agrosanoat rivojining ajralmas qismidir. Bu jarayon qishloq xo'jaligi faoliyatini ilmiy asoslangan, samarali va barqaror qilishga xizmat qiladi. Dasturiy ta'minot orqali nafaqat ishlab chiqarish hajmi oshiriladi, balki ekologik muvozanat ham saqlab qolinadi. Shu boisdan, bu boradagi ishlarni jadallashtirish va keng miqyosda tatbiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dasturiy ta'minot qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanuvchilarga (qishloq xo'jaligi klasterlari, fermer xo'jaliklari va boshqalar) yerlaridan samarali foydalanish, monitoring qilish va boshqarish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda kam xarajat va kam mehnat kuchi sarflab yuqori darajadagi samaradorlikka erishish hamda maqbul tuproq-agroteknika va tashkiliy-hududiy sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-fevraldagi "Qishloq xo'jaligi ekin maydonlari unumdorligini oshirish, tarmoqqa investitsiyalar jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-18-son Farmoni.
2. Turayev R.A., Inamov B.N., Davronov O.O', Xojiyev K.M., Abdullayev N.B., Safayev S.Z., Shukurova N.O., Qutlimurotov J.N., Alimxamatova Sh.O., Zaripboyeva M.U., Abdusalomov A.A., Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yerlarning axborot bazasini yaratish bo'yicha uslubiy qo'llanma. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2024.
3. Turayev R.A., Parpiyev G.T., Babajanov A.R., Inamov B.N., Z.Sh.Musurmankulov, Ekin yer maydonlaridan unumli foydalanishda yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish. Ilmiy-uslubiy tavsiyanoma. Toshkent, 2022.
4. Babajanov A.R., Inamov B.N. Ekin yer maydonlaridan unumli foydalanishda yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish. Monografiya. – Toshkent, 2022.
5. Xamidov M.X., Inamov A.N., Islomov O'P., Mamatkulov Z.J., Inamov B.N., Raqamli gidromodul rayonlashtirish. "O'zbekiston zamini" ilmiy-amaliy va innovatsion jurnali. - Toshkent, 2022
6. Ruzmetov M.I., Turayev R.A., Davronov O.O', va boshq. O'zbekistonning tabiiy yaylov va pichanzorlarida geobotanik tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanma, Toshkent, "O'zdavero'lohiha" DILI, 2022.
7. Muxtorov O'.B., Inamov A.N., Lapasov J.O., Geoaxborot tizim va texnologiyalari fanidan o'quv qo'llanma. Toshkent. 2017
8. Oxunov Z.D., Abdullayev I.O'. Ma'lumotlarni olish va integratsiyalash. – Toshkent. «Iqtisod» – Moliya, 2016.